

"TASDIQLAYMAN"

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB

Boshqaruv Raisi o‘rinbosari

S. Abduvaliyev



**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan tadbirkorlik subyektlariga
subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish,
ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz
foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to‘g‘risida
VAQTINCHALIK TARTIB**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 11 dekabrda 784-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda-Bank) tizimida tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini tizimli monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

asossiz olingan subsidiya — subsidiya olish uchun soxta ma’lumot va hujjatlar taqdim etish orqali yoki mazkur subsidiyani qonunchilikda belgilanganidan boshqa yo‘nalishlarda foydalanish uchun olish;

imtiyoz — davlat tomonidan muayyan sabablarga ko‘ra tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ularga beriladigan afzallik;

imtiyozli kredit – milliy valyutada Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshmaydigan kreditlar, xorijiy valyutada Hukumat kafolati ostida jalb qilingan resurs mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar tushuniladi;

ijtimoiy samaradorlik — ijtimoiy infratuzilma va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, uning ijtimoiy himoyasi va bandligini ta’minlash uchun qulay sharoitlar yaratilishini tasdiqlovchi imtiyozlar samaradorligi ko‘rsatkichlari;

iqtisodiy samaradorlik — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga (ishlab chiqarish hajmining o‘sishi va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotilishi, tannarx

pasayishi, mahsulot (ish, xizmat) turlari kengayishi, daromadning oshishi va boshqalar) ta'sirini baholash;

maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalar — qonunchilik hujjatlari hamda tuzilgan shartnomalarga (bitimlarga) muvofiq taqdim etilgan subsidiyani belgilanganidan boshqa maqsadlar uchun sarflash;

moliyaviy (budjet) samaradorlik — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarning tadbirkorlik subyekting moliyaviy barqarorligi, sarmoyalarni jalb qilish imkoniyati oshishi hamda budjetga tushgan soliq va bojxona to'lovlari hajmining oshishiga ta'sirini baholash;

monitoring qilish — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishni kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

preferensiya — tadbirkorlik subyektlarining biror bir faoliyat turini qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan ayrim turdagi afzallik;

Respublika komissiyasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-193-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni maqbullashtirish hamda ularning samaradorligini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi;

samaradorlik ko'rsatkichi — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar natijasida erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar;

samaradorlikni baholash — iqtisodiy, moliyaviy (budjet) va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik subyektlarini ularga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar natijalarini taqqoslash tartib-taomillari;

samaradorlikni dastlabki baholash — tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etadigan tashkilot tomonidan erishilgan natijalarni o'z vakolati doirasida tadbirkorlik subyektlari kesimida baholash;

samaradorlikni yakuniy baholash — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni vakolatli organ tomonidan samaradorlikni dastlabki baholash natijalari asosida ushbu Vaqtinchalik tartib talablari asosida baholash;

subsidiya — tovarlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o'rnini qisman qoplash uchun budjet tizimi budjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan mablag'lar;

qo'llab-quvvatlash choralari — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar;

qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligi — qo'llab-quvvatlash choralaridan ko'zlangan maqsadga erishishning miqdoriy bahosi;

qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot — qonunchilik hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etish bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosani berish hamda ularning monitoringini yuritish

va samaradorligini dastlabki baholash vakolatiga ega bo'lgan davlat organi.

kredit shartnomasi – Bank (bir taraf) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini o'z ichiga oluvchi shartnoma;

kredit ishtirokchilari – birgalikda qarz oluvchi, kafil, garovga qo'yuvchi, sug'urtalovchi;

kredit monitoringi – kredit va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa moliyaviy to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash maqsadida kredit ajratilishi ma'qullangan vaqtdan boshlab, Bank oldidagi majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar olib boriladigan nazorat jarayoni.

2. Ushbu Vaqtinchalik tartibning amal qilishi favqulodda holatlarda davlat va jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish ushbu Vaqtinchalik tartibga ilovada keltirilgan sxema asosida amalga oshiriladi.

Maqsadli yo'naltirish shartlari bilan taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hamda tadbirkorlik subyekti tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni aniqlash uchun baholanadi.

4. Asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalar taqdim etilgan manbaga qaytarib olinadi.

5. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etishda ularni taqdim etadigan tashkilot tomonidan tadbirkorlik subyekti erishishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilanadi.

Shartnomada (bitimda) subsidiyadan maqsadsiz, samarasiz yoki noqonuniy foydalanganlik holatlari aniqlangan taqdirda, berilgan subsidiya tegishli budjetga qaytarib olinishi hamda subsidiya oluvchi tadbirkorlik subyektiga kelgusida subsidiyadan foydalanish huquqi berilmasligi haqidagi ma'lumotlar ham aks ettiriladi.

6. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot ushbu qo'llab-quvvatlash choralarining har bir turi bo'yicha tizimli monitoring qiladi hamda samaradorlikni dastlabki baholash ishlarini amalga oshiradi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 11 dekabrda 784-sonli qarorining 2-ilovasiga asosan bankning Korporativ markaz/O'rta biznes markazi/Kredit monitoring va nazorati departamenti mas'ul xodimlari Tadbirkorlik subyektlari uchun bank kreditlari bo'yicha imtiyozlarni "subsidiya.mf.uz" platformasiga ma'lumotlarni kiritishga mas'ul hisoblanadi.

II bob. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilotning asosiy vazifa va majburiyatlari

8. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etuvchi Korporativ markaz/O'rta biznes markazi/Kredit monitoring va nazorati departamenti mas'ul xodimlari quyidagilar uchun mas'ul va javobgar hisoblanadi:

qo'llab-quvvatlash choralarining qonunchilik hujjatlariga muvofiq maqsadli taqdim etilishi;

ushbu Vaqtinchalik tartibga muvofiq tadbirkorlik subyekti tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash;

qo'llab-quvvatlash choralari monitoringini yuritish va samaradorligini dastlabki baholash;

asossiz olingan va maqsadsiz, samarasiz yoki noqonuniy foydalanilgan subsidiyani majburiy tartibda tegishli budjetga qaytarilishini tashkil qilish.

9. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etuvchi Korporativ markaz/O'rta biznes markazi/Kredit monitoring va nazorati departamenti mas'ul xodimlarining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

qo'llab-quvvatlash choralarining tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha talab va shartlarga mos keluvchi tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishini tashkil etish;

taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan tadbirkorlik subyektlari maqsadli foydalanishi hamda buning natijasida lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishini monitoring qilish;

taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan tadbirkorlik subyektlari samarali foydalanishini tahlil qilish va samaradorlikni dastlabki baholash;

qo'llab-quvvatlash choralaridan samarasiz hamda maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini shakllantirish;

asossiz olingan hamda maqsadsiz foydalanilgan subsidiyani majburiy tartibda tegishli budjetga qaytarish choralari ko'rish;

iqtisodiyotga ijobiy ta'siri kuzatilmayotgan hamda samaradorligi past va samarasiz qo'llab-quvvatlash choralarining taqdim etilishini to'xtatish yoki bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlash;

har yili 1-iyulga qadar tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari va ularning samaradorligini dastlabki baholash natijalari asosida hisobot tayyorlash hamda vakolatli organga taqdim etish.

III bob. Qo'llab-quvvatlash choralari oluvchi tadbirkorlik subyekting majburiyatlari

10. Qo'llab-quvvatlash choralari oluvchi tadbirkorlik subyekting majburiyatlari quyidagilardan iborat:

qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadli va samarali foydalanishi;

taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida tegishli qonunchilik hujjalari hamda subsidiya shartnomasiga (bitimiga) muvofiq aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlashi;

taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish jarayonida

qonunchilikda belgilangan me'yorlarga to'liq amal qilishi shart.

IV bob. Monitoring qilish tartibi

11. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot tadbirkorlik subyektlariga taqdim etgan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini dastlabki baholash ishlarini ularga qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etishda belgilangan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini monitoring qilish orqali amalga oshiradi.

12. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi, ulardan tadbirkorlik subyektlari tegishli qonunchilik hujjatlari hamda subsidiya shartnomasiga (bitimiga) muvofiq maqsadli va samarali foydalanishini o'zining elektron tizimlari orqali monitoring qiladi.

Bunda tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralariidan maqsadli va samarali foydalanish idoralararo axborot almashinuvi orqali monitoring qilinadi.

Zaruratga ko'ra, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralariidan maqsadli foydalanish holati joyiga chiqqan holda o'rganilishi mumkin. Bunda joyiga chiqqan holda o'rganish uchun tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tartibi doirasida o'n kundan oshmagan muddatda o'tkazishga tashabbus bildiriladi va o'rganish ishlari amalga oshiriladi.

13. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar ajratish bo'yicha axborot tizimlarini vakolatli organning "subsidiya.mf.uz" platformasiga integratsiya qiladi.

14. Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar ajratilishi "subsidiya.mf.uz" platformasi orqali monitoring qilinadi.

Bunda qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotlarning axborot tizimi orqali yoki belgilangan tartibda joyiga chiqqan holda o'tkazilgan monitoring natijalari "subsidiya.mf.uz" platformasiga o'zaro axborot almashinuvi orqali taqdim etiladi.

15. Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etishga asos bo'ladigan hujjatlarning to'g'riligi va haqqoniyligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlarini berish uchun asos bo'ladigan hujjatlarning (litsenziya, guvohnoma va boshqalar) to'g'riligi va haqqoniyligi Soliq qo'mitasi hamda Bojxona qo'mitasi bilan o'zaro idoralararo axborot almashinuvi orqali tasdiqlanadi.

16. Har bir tadbirkorlik subyektiga qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etishda, shu jumladan, subsidiya shartnomasida (bitimida) samaradorlik mezonlariga muvofiq aniq maqsadli ko'rsatkichlar qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotning axborot tizimiga kiritiladi.

17. Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan subsidiyalar qonuniy olingani, ulardan maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot tomonidan doimiy monitoring yo'lga qo'yilib, subsidiya

shartnomasiga (bitimiga) asosan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishish nazorat qilib boriladi.

V bob. Samaradorlikni baholash mezonlari

18. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanadi:

a) iqtisodiy samaradorlik:

umumiy mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining oshishi;

yangi turdagi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining oshishi;

mahsulotni (ishni, xizmatni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaning o'sish sur'ati;

mahsulot (ish, xizmat) turining kengayishi;

yangi kashfiyot, patent va sanoat namunalari miqdoriy ko'rsatkichlarda joriy etish;

yangi texnologiyalar, uskunalar va ishlab chiqarish quvvatlarini (ishlab chiqarish korxonalarini uchun) miqdoriy ko'rsatkichlarda joriy etish;

tadbirkorlik subyektlarining daromadining (foydasining) oshishi;

mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishi;

eksport hajmining oshishi;

shartnomaga (bitimga) asosan yordam berilishida maqsad qilingan boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning oshishi;

b) moliyaviy (budjet) samaradorlik:

tadbirkorlik subyektining moliyaviy barqarorligi;

sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatining oshishi;

investitsiyalar hajmining oshishi;

budjetga tushgan soliq va bojxona to'lovlari hajmining oshishi;

v) ijtimoiy samaradorlik:

yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;

ish haqini oshirish, qo'shimcha mablag'larning yo'naltirilishi;

ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash;

mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasini yaxshilash;

shartnomaga asosan yordam berilishida maqsad qilingan boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar.

19. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi qo'llab-quvvatlash choralari quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar (keyingi o'rinlarda — yetkazib beruvchilar) doirasining va sonining cheklanishi;

yetkazib beruvchilarning o'zaro raqobatlashish imkoniyati chegaralanishi;

yetkazib beruvchilarning bozor munosabatlarida o'zaro raqobatlashishga qiziqishining pasayishi;

yetkazib beruvchilarning yangi texnologiyalar, mahsulotlar yoki biznes

modellarini amaliyotga joriy etishining cheklanishi;

iste'molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkoniyatining chegaralanishi.

VI bob. Samaradorlikni baholash tartibi

20. Samaradorlik qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilgunga qadar o'tgan uch yillik davrni qo'llab-quvvatlash choralarining amal qilish muddatiga (agar qo'llab-quvvatlash chorasi joriy etilganiga uch yil bo'lmagan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan) taqqoslash orqali baholanadi.

21. Samaradorlikni baholashda manbalardan quyidagi ketma-ketlikda foydalaniladi:

tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy, soliq hisobotlari;

sohaviy idoralar yoki statistika idoralari ma'lumotlari;

qo'llab-quvvatlash choralari natijalari yuzasidan tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar.

22. Samaradorlik har bir tadbirkorlik subyekti uchun iqtisodiy, moliyaviy (budjet) va ijtimoiy mezonlar bo'yicha alohida baholanadi.

23. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash choralarining iqtisodiy samaradorligi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichning qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishida reja qilingan iqtisodiy ko'rsatkichga (maqsadli ko'rsatkich) nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$S_{iqt} = \frac{\sum_{k=1}^N \frac{K_{fakt_k}}{K_{reja_k}}}{H}, \text{ bu yerda:}$$

$K_{reja_1}, K_{reja_2}, K_{reja_3}, \dots, K_{reja_n}$ — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishida reja qilingan iqtisodiy ko'rsatkich;

$K_{fakt_1}, K_{fakt_2}, K_{fakt_3}, \dots, K_{fakt_n}$ — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan iqtisodiy ko'rsatkich;

N — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida erishilishi rejalashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar soni.

$S_{iqt} \geq 1$ holatlarda $S_{iqt} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_{iqt} = 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari yuqori iqtisodiy samarali;

$0,7 \leq S_{iqt} < 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy samarali;

$0,5 \leq S_{iqt} < 0,7$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari o'rtacha iqtisodiy samarali;

$S_{iqt} < 0,5$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy samarasiz.

24. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash choralarining moliyaviy (budjet) samaradorligi ko'rsatkichi oxirgi hisobot yili va oldingi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi farqining oxirgi hisobot yili uchun taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarining umumiy miqdoriga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$S_b = (B_t - B_{t-1})/Q$, bu yerda:

S_b — moliyaviy (budjet) samaradorlik ko'rsatkichi;

Q — oxirgi hisobot yili uchun taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarining umumiy miqdori;

B_t — oxirgi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi;

B_{t-1} — oxirgi hisobot yilidan oldingi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi.

$S_b \geq 1$ holatlarda $S_b = 1$ sifatida, $S_b \leq 0$ holatlarda $S_b = 0$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_b = 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari yuqori moliyaviy samarali;

$0,7 \leq S_b < 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari moliyaviy samarali;

$0,5 \leq S_b < 0,7$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari o'rtacha moliyaviy samarali;

$S_b < 0,5$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari moliyaviy samarasiz.

25. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash choralarining ijtimoiy samaradorligi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan ijtimoiy ko'rsatkichning qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishida reja qilingan ijtimoiy ko'rsatkichiga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$S_{ijt} = \frac{\sum_{k=1}^N \frac{Kfakt_k}{Kreja_k}}{H}, \text{ bu yerda:}$$

$Kreja_1, Kreja_2, Kreja_3, \dots, Kreja_n$ — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishida reja qilingan ijtimoiy ko'rsatkich;

$Kfakt_1, Kfakt_2, Kfakt_3, \dots, Kfakt_n$ — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan ijtimoiy ko'rsatkich;

N — qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi natijasida erishilishi rejalashtirilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar soni.

$S_{ijt} \geq 1$ holatlarda $S_{ijt} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_{ijt} = 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari yuqori ijtimoiy samarali;

$0,7 \leq S_{ijt} < 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari ijtimoiy samarali;

$0,5 \leq S_{ijt} < 0,7$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari o'rtacha ijtimoiy samarali;

$S_{ijt} < 0,5$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari ijtimoiy samarasiz.

26. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholash tahlil qilingan davr uchun iqtisodiy, budjet (moliyaviy) va ijtimoiy mezonlari bo'yicha ballar yig'indisining o'rtacha ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi:

$K_s = (S_{iqt} + S_b + S_{ijt})/3$, bu yerda:

K_s — samaradorlik ko'rsatkichi;

S_{iqt} — iqtisodiy samaradorlik;

S_b — moliyaviy (budjet) samaradorlik;

S_{ijt} — ijtimoiy samaradorlik.

Qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligi maksimal 1 balli shkalada baholanadi:

$K_s = 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari yuqori samarali;

$0,7 \leq K_s < 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari samarali;

$0,5 \leq K_s < 0,7$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari o'rta samarali;

$K_s < 0,5$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari samarasiz.

27. Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarining umumiy samaradorligi barcha tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligining tadbirkorlik subyektlari soniga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$K_{s.um.} = \frac{\sum_{i=1}^M K_{si}}{M} \quad \text{bu yerda:}$$

$K_{s.um.}$ — qo'llab-quvvatlash choralarining umumiy samaradorlik ko'rsatkichi;

K_{si} — qo'llab-quvvatlash choralarining n -korxonaga uchun samaradorlik ko'rsatkichi;

M — qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalangan tadbirkorlik subyektlari soni.

$K_{si} \geq 1$ holatlarda $K_{si} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$K_{si} = 1$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari yuqori samarali;

$0,7 \leq K_{si}$

$0,5 \leq K_{si} < 0,7$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari o'rtacha samarali;

$K_{si} < 0,5$ bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralari samarasiz.

28. Imzolangan subsidiya shartnomalarida (bitimida) belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarining ijro darajasi 1 balli shkalada bo'lganda 100 foiz hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektining umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 50 foizdan kam bo'lishi qo'llab-quvvatlash choralaridan samarasiz va maqsadsiz foydalangan deb xulosa berishga asos bo'ladi.

29. Taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan tadbirkorlik subyektlarining 50 foizidan ortiq qismi samarasiz yoki maqsadsiz foydalangani aniqlanishi mazkur qo'llab-quvvatlash chorasini bekor qilish yuzasidan taklif tayyorlashga asos bo'ladi.

30. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etuvchi tashkilot o'zi mas'ul bo'lgan har bir turdagi subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalardan tadbirkorlik subyektlari kesimida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilganini, samarali foydalanilganini tahlil qiladi hamda samaradorligini dastlabki baholaydi;

Bunda qo'llab-quvvatlash choralari samarasiz deb topilganda, ularni bekor qilish yuzasidan taklif tayyorlaydi.

Qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini dastlabki baholash natijalari bo'yicha hisobotni har yili 1-iyulga qadar vakolatli organga taqdim etadi.

Vakolatli organ har yili 1-avgustga qadar qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim

etuvchi tashkilot tomonidan dastlabki baholash natijalariga muvofiq taqdim etilgan hisobotlar asosida qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholash yakunlari bo'yicha axborotni Hisob palatasi bilan kelishgan holda Respublika komissiyasiga kiritadi.

Bunda natijalar asosida samarasiz deb topilgan qo'llab-quvvatlash choralari bo'yicha ularni bekor qilish yoki qayta ko'rib chiqish yuzasidan taklif tayyorlanadi.

Respublika komissiyasi har yili 1-oktabrga qadar qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholash yakunlari bo'yicha ma'lumotnomani hamda ushbu choralarning amal qilishini davom ettirish, bekor qilish yoki ularni taqdim etish tartibini takomillashtirish haqidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi.

31. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot samaradorlikni dastlabki baholash maqsadida zarur hollarda vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning mutaxassislari, shuningdek, ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

7-bob. Asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi

32. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan subsidiyalardan maqsadli foydalangani hamda ularning asosli olingani yuzasidan monitoring olib boradi.

33. Tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan subsidiyalar quyidagi hollarda qaytariladi:

subsidiya shartnomasi (bitim) bo'yicha tadbirkorlik subyekti tomonidan erishish lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar bajarilmaganda;

Bunda subsidiyalar shartnoma shartlarining bajarilmagan qismiga mutanosib tarzda qaytariladi.

mablag'lardan maqsadsiz va samarasiz foydalanilgani aniqlanganda;

subsidiya oluvchi tadbirkorlik subyekti tomonidan tegishli hujjatlar yoki ma'lumotlarni noto'g'ri yoxud buzib ko'rsatish va asossiz olingani holatlari aniqlanganda.

34. Asossiz olingani yoki maqsadsiz foydalanilgani aniqlangan subsidiyalar quyidagi tartibda qaytariladi:

qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot tadbirkorlik subyektiga ajratilgan subsidiyani ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida talabnoma yuboradi.

Talabnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur:

subsidiyaning asossiz olingani yoki undan maqsadsiz foydalanilganini asoslantiruvchi ma'lumotlar va hujjatlar;

subsidiyaning qaytarib olinadigan summasi;

subsidiyani qaytarish muddati. Bunda subsidiyani ixtiyoriy ravishda qaytarishning minimal muddati **o'n ish kuni** etib belgilanadi.

Tadbirkorlik subyekti belgilangan muddatda talabnomada ko'rsatilgan subsidiyani qaytarmasa, subsidiya taqdim etgan tashkilot ajratilgan subsidiyani qaytarish to'g'risida sudga da'vo arizasini kiritadi.

35. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq subsidiyalarning maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan o'rganish va tahlillar natijasida subsidiya oluvchi tadbirkorlik subyekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari aniqlanganda, to'plangan hujjatlarni belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etadi.

36. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlari) yuzaga kelib, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilmaganda, taqdim etilgan subsidiyalar qaytarib olinmaydi.

Bunda yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlari) yuzaga kelgan tadbirkorlik subyekti faoliyati ushbu holatlarning bartaraf etilishi bilan bog'liq maxsus vakolatli organlarning tegishli xulosasini taqdim etishi lozim.

37. Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar asossiz berilishi yuzasidan qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko'riladi.

8-bob. Qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish natijadorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilib borish

38. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish natijadorligi to'g'risida qo'llab-quvvatlash choralari turi, tadbirkorlik sohalari kabi ma'lumotlarni rasmiy veb-sahifalari hamda ochiq axborot tizimlari orqali e'lon qilib boradi.

39. "subsidiya.mf.uz" platformasida qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlik sohalari, qo'llab-quvvatlash choralari turi, Davlat budjetiga qaytarilgan subsidiya miqdori kabi ma'lumotlar ochiq e'lon qilib boriladi.

Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotlar ushbu ma'lumotlarni "subsidiya.mf.uz" platformasiga elektron tarzda kiritib boradi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

40. Qo'llab-quvvatlash choralari oluvchi tadbirkorlik subyektlari qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotga o'z vaqtida ma'lumotlarni taqdim etmasligi yoki ishonchsiz va yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

41. Qo'llab-quvvatlash choralari oluvchi tadbirkorlik subyektlariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari qo'llanishi ularni qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilotga ma'lumot taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

42. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot o'ziga berilgan

vakolatlarni amalga oshirishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan tijorat siri yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

43. Ushbu Vaqtinchalik tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

**Kredit monitoring va nazorati
departamenti direktori v.b.**



B.Artikov

“O‘z sanoatqurilishbank” ATB tomonidan tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to‘g‘risidagi
Vaqtinchalik tartibga

ILOVA

Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Mas’ul vazirlik va idoralar	<p>1. Har bir turdagi subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar (keyingi o‘rinlarda — qo‘llab-quvvatlash choralari) taqdim etilishini alohida monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibini ishlab chiqadi.</p> <p>2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan kelishgan holda tartibni tasdiqlaydi, rasmiy veb-sahifasiga joylashtiradi.</p>	2026-yil 1-mart <i>(yangi turdagi qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etilganda)</i>
2-bosqich	Mas’ul vazirlik va idoralar	Barcha qo‘llab-quvvatlash choralari haqidagi ma’lumotlarni “subsidiya.mf.uz” platformasidagi reyestrغا kiritadi.	2026-yil 1-mart
3-bosqich	Mas’ul vazirlik va idoralar	<p>1. Qo‘llab-quvvatlash choralarining har bir turi bo‘yicha tizimli monitoring qilish va samaradorligini dastlabki baholash ishlarini amalga oshiradi.</p> <p>2. Qo‘llab-quvvatlash choralarining har bir turi bo‘yicha samaradorlikni dastlabki baholash natijasida tayyorlangan hisobotni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritadi.</p>	Har yili 20-iyunga qadar Har yili 1-iyulga qadar
4-bosqich	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi	<p>1. Qo‘llab-quvvatlash choralarining sog‘lom raqobat muhitiga ta’sirini baholaydi.</p> <p>2. Baholash natijasida tayyorlangan hisobotni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritadi.</p>	Har yili 20-iyunga qadar Har yili 1-iyulga qadar

5-bosqich	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi	<p>1. Mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini dastlabki hamda raqobat muhitiga ta'sirini baholash natijalari bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarga asosan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va budjetga ta'sirini tahlil qiladi hamda yakuniy baholaydi.</p> <p>2. Qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholash yakunlari bo'yicha Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni maqbullashtirish hamda ularning samaradorligini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasiga axborot kiritadi.</p>	Har yili 1-avgustga qadar
6-bosqich	Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni maqbullashtirish hamda ularning samaradorligini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi	Qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholash yakunlari bo'yicha ma'lumotnomani hamda ushbu choralarning amal qilishini davom ettirish, bekor qilish yoki ularni taqdim etish tartibini takomillashtirish haqidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi.	Har yili 1-oktabrga qadar
7-bosqich	Mas'ul vazirlik va idoralar	Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan subsidiyalarning maqsadli foydalanilishi hamda asosli olinishi yuzasidan monitoring olib boradi.	Doimiy ravishda
8-bosqich	Mas'ul vazirlik va idoralar	Tadbirkorlik subyektiga ajratilgan subsidiyani ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida talabnoma yuboradi.	Subsidiyadan maqsadsiz foydalanilgani yoki asossiz olingani aniqlangan taqdirda
9-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Maqsadsiz foydalanilgan yoki asossiz olingan subsidiyani qaytaradi.	Talabnomada ko'rsatilgan muddatda
10-bosqich	Mas'ul vazirlik va idoralar	Tadbirkorlik subyekti belgilangan muddatda talabnomada ko'rsatilgan subsidiyani qaytarmaganda, ajratilgan subsidiyani qaytarish to'g'risida sudga da'vo arizasini kiritadi.	Talabnomada ko'rsatilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda